



UDK: 316.4:101.1

Nuriddin AXMADIYEV,
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
E-mail: akhmdiyev1987@mail.ru

FarDU professori A.Qambarov taqrizi asosida

IJTIMOY RIVOJLANISH: JAMIYAT TARAQQIYOTINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ijtimoiy rivojlanish tushunchasining falsafiy, metodologik va amaliy jihatlari keng qamrovda tahlil qilingan. Ijtimoiy rivojlanish – inson manfaatlarini, jamiyat hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq murakkab hodisa sifatida talqin etiladi. Muallif jamiyatda yuz beradigan ijobiy va salbiy o‘zgarishlarni, ularning demokratik islohotlar, fuqarolik jamiyati va milliy qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlarni yoritib beradi. Maqolada ijtimoiy rivojlanishga oid nazariy yondashuvlar, xususan, dialektik qarashlar, sinergetik modellar va evolyusion g‘oyalar tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanishning hozirgi tendensiyalari, sohalar kesimidagi o‘zgarishlar va kelgusidagi istiqbollar ochib berilgan. Ijtimoiy taraqqiyotda inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar falsafiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy rivojlanish, jamiyat, falsafa, fuqarolik jamiyati, demokratik islohotlar, taraqqiyot, ijtimoiy tuzum, madaniyat, inson manfaatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, dialektik ziddiyat, milliy qadriyatlar, innovatsion jarayonlar, sinergetika, evolyutsiya.

ОБЩЕСТВЕННОЕ РАЗВИТИЕ: ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЩЕСТВЕННОГО ПРОГРЕССА

Аннотация

В данной статье всесторонне проанализированы философские, методологические и практические аспекты понятия социального развития. Социальное развитие трактуется как сложное явление, тесно связанное с интересами человека, общественной жизнью, социально-экономическими и политическими процессами. Автор раскрывает сущность позитивных и негативных изменений, происходящих в обществе, а также их взаимосвязь с демократическими реформами, институтами гражданского общества и национальными ценностями. В статье рассмотрены теоретические подходы к социальному развитию, включая диалектические взгляды, синергетические модели и эволюционные идеи. Кроме того, показаны современные тенденции социального развития в Узбекистане, изменения в разрезе различных сфер и перспективы дальнейшего прогресса. В философском аспекте исследованы взаимосвязи между человеком, обществом и государством в процессе социального развития.

Ключевые слова: Социальное развитие, общество, философия, гражданское общество, демократические реформы, прогресс, социальный строй, культура, интересы человека, социально-экономические изменения, диалектическое противоречие, национальные ценности, инновационные процессы, синергетика, эволюция.

PHILOSOPHICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIETY DEVELOPMENT

Annotation

This article analyzes the philosophical, methodological, and practical aspects of the concept of social development. Social development is interpreted as a complex phenomenon inextricably linked with the interests of the individual, the life of society, socio-economic and political processes. The author highlighted the positive and negative changes taking place in society, their aspects related to democratic reforms, civil society, and national values. The article analyzes theoretical approaches to social development, in particular, dialectical views, synergetic models, and evolutionary ideas. Current trends in social development in Uzbekistan, changes across sectors, and future prospects are also revealed. In social development, the relationship between the individual, society, and the state is considered from a philosophical perspective.

Key words: Social development, society, philosophy, civil society, democratic reforms, progress, social system, culture, human interests, socio-economic changes, dialectical contradiction, national values, innovative processes, synergetics, evolution.

Kirish. Ijtimoiy rivojlanish jarayoni shaxs manfaatlarini, qolaversa, jamiyatda, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonda ro‘y beradigan, inson hayoti va turmush tarzining eng muhim, zaruriy shartlarini o‘zida ifoda etadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu iboraga “ijtimoiy hayot tarzi, jamiyat, uning hayoti va jamiyat haqidagi fan, ijtimoiy tuzum, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy munosabatlar, jamiyatshunoslik; ijtimoiy, kishilarning jamiyatdagi faoliyati bilan bog‘langan, jamiyatga, jamoatchilikka oid”[1], deb ta‘rif berilgan. Jamiyat esa kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui, ijtimoiy bo‘yliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo‘lgan

shart-sharoitlar majmuasidan iboratdir.[2] Jamiyatning ijtimoiylashuvi “insonning madaniyat, kommunikatsiya ta‘siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan mulokotda bo‘lishlarini ifodalaydi”. [3] Bu omillarning ba‘zilari insonning butun umri buyi davom etadi. Bunday jarayon muntazam harakatda, siljish va rivojlanishda, takomillashadigan jarayonlar natijasida namoyon bo‘ladi.

Adabiyot tahlili. “Ijtimoiy rivojlanish” so‘zining mazmun-moxiyatini o‘rganganda, u o‘ziga bevosita bog‘liq bo‘lmagan holatlarni ham umumiy jihatdan qamrab olishi va buni ijtimoiy rivojlanish jarayoniga nisbatan umumiy darajada

ifoda etishi ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy rivojlanish, o'sish, yuksalish va takomillashish, umuman olganda, murakkablashish jarayoniga xos bo'lgan harakatni namoyon etadi. "Mazkur jarayon ijtimoiy taraqqiyotning makon va zamondagi holatini, shuningdek, uning doimiy yangilanish va rivojlanishdagi harakatini ifoda etadi. Shuning barobarida, demokratik islohotlarning maqsad-mohiyatiga obyektiv baho beradi, ularning amalga oshish jarayonini ochib berishga xizmat qiladi. "Ijtimoiy" so'ziga urg'u beradigan bo'lsak, bu atama arabchadan olingan bo'lib "yakdillik", "hamkorlik" ma'nolarini anglatadi"[5].

Avvalo, "Ijtimoiylashuv jarayonini inson tabiatining aniq ijtimoiy sharoitlar bilan yanada o'zgarishi, deb hisoblash kerak. Unda jarayonning eng umumiy shartlari o'z ifodasini topgan. Ushbu pozitsiyalar insonning aqliy rivojlanishidagi ikki bosqichni yoki ikki qarama-qarshi – biologik va ijtimoiy omilni keskin ajratib turadigan barcha nazariyalarga zid"[6]. Aytish kerakki, inson jamiyat bilan birgalikda ijtimoiy o'sadi, uning ruhiy, biologik takomili aynan jamiyatning ichida ro'yobga chiqadi.

Jamiyatda yuksalish jarayonining natijasi uning ijtimoiy obyekti, yangi sifati (ba'zida miqdor o'zgarishi)ning shakllanishi bilan baholanadi. Bugungi rivojlanish jarayonida ijtimoiy guruhlar faoliyatidagi o'sish umumfalsafiy va ijtimoiy-falsafiy mazmunni anglab olish, tushunish bilan bog'liq hisoblanadi. Demokratik jarayonlar ko'lamida faol ishtirokini kengaytirish, ushbu jarayon uchun zarur bo'lgan iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish bilan birga uni tizimli rivojlantirish vazifasi vujudga keldi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da, «rivojlanmoq» tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan: "ravnaq topmoq, taraqqiy etmoq, o'smoq, yuksalmoq, gullab-yashnamoq".[7] Ijtimoiy rivojlanishning mohiyatini tushunish uning belgi-o'lchovlarini va ko'rsatkichlarini aniqroq ta'kidlashni taqozo qiladi. Rivojlanish tushunchasi ham falsafa ensiklopediya lug'atida "rivojlanish" oddiydan murakkablikka o'tishni ifodalovchi falsafiy kategoriya bo'lib, rivojlanish tushunchasi tabiatshunoslik fanlari, xususan, biologiya, geologiya, keyinroq, kosmologiyaning vujudga kelishi munosabati bilan shakllandi va falsafiy tafakkurga kirib keladi. Nemis faylasufi G. V. Leybnitsning tabiatning asta-sekin (tadrijiy) rivoj topishi ta'limoti ham shunga mutanosib. Mazkur ta'limotda evolyusiyaga va rivojlanish tushunchalarini tirik tabiatga nisbatan ishlatgan[8]. Ijtimoiy rivojlanish mavzusini turli xil ilmiy-falsafiy darajada mushohada qilish mumkin, jumladan, nazariy falsafiy va empirik-tajribaviy tadqiqotlar aspektida, har bir holatda ham o'rganilayotgan obyektning o'ziga xosligini hisobga olish zarur. YA'ni, uning mazmun-mohiyatiga muvofiq keladigan metodlarni tanlab olish zarur bo'ladi. Ijtimoiy rivojlanishni ijtimoiy-falsafiy metodlarni qo'llash orqali tadqiq etish kutilgan ilmiy-nazariy, ijtimoiy amaliy xulosalarga erishishga yordam beradi.

Jamiyat taraqqiyotida, jahon ijtimoiy-falsafiy tafakkurida ijtimoiy rivojlanish tushunchasi ijobiy falsafa tamoyillarida yetakchi o'rinni egallaydi. "Rivojlanish" – taraqqiy etish tushunchasi ijtimoiy o'zgarishlar mazmunida qo'llanilishi, ularni qadriyatlar tizimidan o'rin olganini bildiradi. Jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotidagi ijobiy o'zgarishlar yanada ko'proq ozodlikka ega bo'linayotgani, inson faoliyatini belgilovchi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy huquqlarning kengaytirish, fan, ta'lim va texnika hozirgi davr kishisi uchun o'z hayot tarzini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish istiqbollarning kengaygani ijtimoiy rivojlanishning real mahsulidir. Shu bilan birga, jamiyatshunoslar ijtimoiy rivojlanish konsepsiyasining dialektik ziddiyatlari xarakteri va ushbu jarayonning ayni bir vaqtda ijobiy hamda salbiy tomonlarini ham ko'rsatadi.

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishida isbotlangan haqiqat shuki, progress – taraqqiyot bilan yonma-yan regress – tanazzul, yemirilish, orqaga qaytish ham mavjud. Bu yuqoridan qo'yiga, murakkablikdan oddiylikka olib keladi. Ijtimoiy xarakterdagi tashkilotlar faoliyati darajasining sekinlashib borishi, funksiyalarning o'zlashuvi, turg'unlik sodir bo'lishi kabi. Bunday salbiy hodisalar bilan bir qatorda rivojlanishning boshi berk liniyasi ham mavjud. Bu hol u yoki bu ijtimoiy va madaniy shakl, tuzilmalarning halokatiga olib keladi. Bunga misol tariqasida insoniyat tarixida ba'zi milliy madaniyatlar va kontinental sivilizatsiyalarning halok bo'lganini keltirish mumkin.

Jamiyat taraqqiyotidagi nomuntazamlilik, o'zgarishlar va rivojlanishga asosiy e'tiborni qaratish, ijtimoiy evolyusiyaga g'oyasini ijtimoiy tizimning o'zgaruvchanlik sifati bilangina sharhlash mumkin emas. Mohiyatan evolyusiyaga g'oyasini qaysi fan nazariyalari, modellar, tushunchalar yordamida tasavvur qilish mumkin, degan savol tug'iladi. Bu masalaning yechimini topishda sinergetik yondashuv muhim rol o'ynaydi, ya'ni o'z-o'zini boshqarishning o'ta murakkab tizimlari rivojlanishining nomuntazamlilik qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Shu munosabat bilan mutafakkir Aristotel ta'kidlaganki, "Demokratiya birinchi ko'rinishining xarakterli belgisi tenglikdir. Tenglik demokratiyaning asosiy qonuniga muvofiq, mulksizlar ham, mulkdorlar ham hech narsada biron-bir imtiyozlarga ega emaslar, oliy hokimiyat u yoki bu tarafning qo'lida to'planmagan. Shu bilan birga, har ikkalasi o'zaro tengdir"[9]. Hozirgi zamon jamiyatida yangi taraqqiyot uchun dolzarb muammolardan yana biri – bu mamlakatni ijtimoiy rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish strategiyasini amalga oshirish, inson, xalq va davlatning ijtimoiy rivojlanish davrini uzoq istiqbolga qadar ta'minlash zaruriyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jamiyatning ijtimoiy rivojlanish obyekti, ortga qaytmaydigan jarayon bo'lib, moddiy va ma'naviy qarashlar, jamiyatdagi muayyan o'zgarishlar, ayni ijtimoiy rivojlanish mazmunini yo'qotishlar natijasida yangi tuzumga o'tadi, bu tuzumda muayyan darajadagi shakllanish, o'zgaruvchanlik, narsalar va voqe'liklar o'rtasidagi o'zaro obyektiv bog'liqlik holatini paydo qiladi. O'sish va yuksalish jarayoni obyektning harakati, ya'ni immanent jarayon bo'lib, rivojlanayotgan obyekt tarkibida uning harakat manbai mavjud bo'ladi.

Natija va muhokama. Aytish kerakki, "ijtimoiy rivojlanish" o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra, fuqarolik jamiyat hayotining har tomonlariga doir voqea-hodisalar, yuksalish va konseptual ijobiy-salbiy o'zgarishni ifoda etuvchi, keng qamrovli falsafiy fikrlar majmuasidan iborat tushunchadir, u inson tafakkurida ifoda topadi. Ijtimoiy rivojlanish tizimini quyidagicha tavsiflash mumkin:

a) fuqarolik jamiyatiga, uning rivojlanish qonuniyatlari, inson turmush tarziga oid, muayyan voqe'liklar;

b) jamiyatda tutgan o'rniga, ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar, tabaqalar, sinflar, etnik va qatlamlar, demografik bo'linishlar faoliyatida yuz beradigan jarayonlar;

v) jamiyatning tizimli rivojlanish va jadal taraqqiyoti bilan bog'liq, ya'ni jamoatchilik faoliyatlari, faol tadbirkorlik madaniyati, ijtimoiy himoya tizimi, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati;

g) O'zbekiston Respublikasining ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat sohalarini, jamiyatdagi insonlar manfaatlarini ko'zda tutgan, ijtimoiy- iqtisodiy xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan va boshqa qator sohalar oid rivoji;

d) jamiyat taraqqiyoti munosabati bilan mamlakatda rivojlantirilgan ijtimoiy yuksalishda kechayotgan siyosat, iqtisodiy va ma'naviy-madaniyatni, ishchi-xodimlar

malakasini, xarakterli xususiyatlarini ta'kidlovchi ijtimoiy-falsafiy kategorial tushunchadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev qayd etganidek, mamlakatda ijtimoiy rivojlanish bo'yicha o'ziga xos tizim shakllanmoqda.

Demak, ijtimoiy rivojlanish, ijtimoiy voqelik, muammolar, vujudga kelishi mumkin bo'lgan lokal harakterdagi ziddiyatlarni hal etish, taraqqiyotning yangi rivojlanish talablari bosqichiga muvofiq ravishda jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan innovatsion usullarni vujudga keltirish, shakllantirish, mazmunan yuksaltirish asosida yuz beradi. Ijtimoiy rivojlanish dialektikasining dastlabki bosqichi muayyan darajada yuqorida ifodalangan voqeliklar bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy hayot asosini tasniflashda qadimiy "Avesto"da qayd etilgan quyidagi mulohazalarni keltirish o'rinli: «Kimning uyi bo'lsa, u uysiz bexonumon odamdan yaxshiroqdir». Milliy

qadriyatlarimizda mazkur tushuncha oila, ota-ona, bobo-buvi, yaqin maslakdoshlarning umumiy ma'nosini anglatadi.

Xulosa. Ijtimoiy rivojlanish tushunchasi ijtimoiy falsafaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Rivojlanish tufayli ijtimoiy hayot sifati va mazmuni o'zgaradi, taraqqiyotning yuksak takomillashgan bosqichiga ko'tariladi. Qadimgi Xitoy faylasufi Konfusiy ta'kidlaydiki, "Eng muhimi, odamlarni oziq-ovqat, qurol-yaroq bilan ta'minlash va ular ishonchini qozonishdir. Quroldan voz kechish, hattoki oziq-ovqatdan ham yuz o'girish mumkin (oxir-oqibatda erta yoki kech hamma hayotdan ko'z yumadi). Lekin ishonchga ega bo'lmagan davlatning asosi yo'qdir". Eng avvalo, fuqarolik jamiyatida inson hayoti, faoliyati va ijtimoiy, iqtisodiy ehtiyojlarining turi va tasnifini izohlab berishni taqozo etadi, mazkur jarayonning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini rivojlantirish zaruriyati vujudga keladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati, Madvaliyev A. tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006-2008.
2. Abdullayeva M. Falsafa ensiklopediya lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent 2010.
3. Mustaqillik: izoxli ilmiy-ommabop lug'at. – Toshkent.: "Sharq",1998.
4. Ansiferova L. I. Razvitiye lichnosti i problemi gerontopsixologii. Izdaniye 2-ye, ispravlennoye i dopolnennoye. – Moskva: Institut psixologii RAN; 2006 god.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati, Madvaliyev A. tahriri ostida.-Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006-2008. – B 382.
6. Abdullayeva M. Falsafa ensiklopediya lug'ati. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent, 2010. – B. 236.
7. Aristotel. Politika. Sochineniye v 4-x tomax. – Moskva, Misl, 1984. – S 496.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyevning SH.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2019 yil 28 dekabr //Xalq so'zi, 29 dekabr 2019 yil.
9. Jo'rayev N. Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik. –Toshkent, 2015.